

O'ZBEKISTONDA "HALOL TURIZM" NI RIVOJLANTIRISHDA MAVJUD KAMCHILIKLAR VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Xasanova Nargiza

Kimyo Toshkent Xalqaro Universiteti

"Turizm" kafedrasi katta o'qituvchisi

Obloqulova Muxlisa

Kimyo Toshkent Xalqaro Universiteti

"Turizm" yo'nalishi talabasi

Annatatsiya: Ushbu maqolamizda mamlakatimiz turizmini rivojlantirishda halol turizmning o'rni, ushbu yo'nalishni takomillashtirishda mavjud salohiyat, rivojlangan davlatlarning xalqaro tajribalari va axborot texnologiyalarini amaliyotda qo'llashdagi kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish yo'llari bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Halol turizm, halol sertifikati, namozxonalar, Qibla ko'rsatkichlari, SalamWeb brauzeri, yo'l xaritalar, brashshuralar, online ekranlar.

Annotation: This article examines the role of Halal tourism in the development of tourism in the country, the current development potential of the area, international experiences of developed countries and shortcomings in the application of information technologies in practice, application and recommendations for their elimination.

Keywords: Halal tourism, certificate of halal, Prayer rooms, SalamWeb browser, road map and brochures, online screens.

KIRISH

Turizm mamlakat iqtisodiyoti rivojining muhim omili hisoblanadi. Shu bois, dunyoning ko'plab mamlakatlari ushbu sohani rivojlantirish, tegishli infrastrukturani jahon standartlari darajasida yaratish va turistlar oqimini oshirish bo'yicha o'ziga xos strategik rejalar ishlab chiqishgan. Bu esa sohada hali ko'plab kamchiliklarimiz borligini anglatadi. Shu bilan bir qatorda, mamlakatimizda turizmni rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayapti. Kundalik hayotimizda ham "ichki turizm", "kirish turizmi", "chiqish turizmi", "ekoturizm" kabi tushunchalar keng qo'llanilmoqda va aholida turizmga nisbatan ijobiylar qarash shakllanmoqda. Ular qatoriga "halol turizm" atamasi ham kirib kelmoqda. Turizm sohasi, faqat iqtisodiy

foydar bilan emas, balki global tushunchani oshirish, madaniy almashishni rag'batlantirish va odamlarning bir-birlarini yaxshi tushunishiga imkon berish kabi bir nechta foydalarni taqdim etadi. Har biri, turistlar tomonidan tashrif buyurish tajribalarini shakllantiradigan va manzillar o'tasidagi raqobatni oshiradigan muhim modullardir. Ular, turistlar tomonidan qiziqtirish va mahalliy iqtisodiyatga hissa qo'shish uchun doimiy ravishda rivojlantiriladi va reklama qilinadi. Lekin, turizmning o'sishi bilan birga ba'zi muammolar paydo bo'lishi mumkin. Ular ichida ekologik ta'sirlar, madaniy birlikning turg'unligi xavfi, mahalliy resurslarning ortiqcha iste'moli va mahalliy jamoalar uchun turizm buning salbiy natijalari kabi bor. Ushbu muammolar, ilg'or strategiyalar va sarmoyalananadigan amaliyotlar bilan hal qilinishi mumkin. Halol ekologik turizm turizm sohasida o'sib borayotgan tendentsiyadir, chunki ko'proq musulmonlar o'zlarining qadriyatlari va e'tiqodlariga mos ravishda sayohat qilishga intilishadi. O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishga oid bir necha qaror va farmoyishlar chiqarildi. Madaniyat va turizm vazirligining nogironligi bo'lgan shaxslar uchun respublika bo'ylab sayohatlar tashkil etish maqsadida "Sayohat barcha uchun!" loyihasini amalga oshirish bo'yicha taklifi ma'qullandi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida turizmni rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari joriy etildi.¹

Xo'sh, "Halol turizm" o'zi nima? U sayyoqlikning qanday turi hisoblanadi. "Halol turizm"- bu oilaviy hordiq chiqarish, hamyonbop turar joylarda tunab, sifatli, ozoda ovqatlanish shaxobchalarida taomlanish. Kamchiqimlikni xush ko'ruchchi va isrofdan o'zini tiyadigan kishilar uchun yaratilgan xizmatdir. Hozirgi kunda turizmning bu yo'nalishi bir qator davlatlarda rivojlanib bormoqda. Xususan, Malayziya, Indoneziya, Marokash va Turkiya davlatlari yetakchi o'rinni egallaydi. Yurtimizda ham turizmning bu yo'nalishi ommalashib bormoqda. 2017-yilda "Crescent Rating" tashkiloti tomonidan "Halol turizm" bo'yicha o'tkazilgan reytingda O'zbekiston 28-pog'onadan joy olgan. Turistik xizmatlarning ushbu turidan, asosan,

¹ PQ-135-son 26.04.2023 "Respublikamizda turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" qaror.

islom diniga e'tiqod qiluvchilar foydalanishadi. Bugungi kunda muslimonlarning umumiy soni 1,6milliard nafar bo'lib, shundan qariyb 150millioni har yili turistik maqsadlarda sayohatga chiqadi. O'zbekiston ushbu sayyoohlarning yirik markaziga aylanishi mumkin. Negaki, yurtimizda turizm salohiyati nihoyatda katta. Shu bois mazkur sohani, xususan, uning "Halol turizm" tarmog'ini rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Halol turizmda ko'rsatiladigan xizmatlar boshqalaridan tubdan farq qiladi. Undagi barcha xizmat va mahsulotlar tashrif buyuruvchining dini, e'tiqodi va yashash tarziga mutloqo mos kelishi kerak. "Halol" belgisi ostida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar xizmatlarning asosini egallashi lozim. "Halol" yorlig'i bilan ko'rsatilayotgan xizmatlarga Yevropa Ittifoqi, AQSH, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Kanada, Xitoy, Hindiston, Lotin Amerikasi davlatlari, Yangi Zelandiya va Tailand kabi mamlakatlarda ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, halol turizm industriyasi jadal rivojlanayotgan soha bo'lib, bu bozorning yillik hajmi 126milliard AQSH dollarini tashkil etmoqda va 2020-yilga borib kamida uch barobar ortishi kutilmoqda. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, dunyoning qaysi bir mintaqasidan turist tashrif buyurmasin, unga sifatli va ozoda mahsulot tortiq qilish va yurtimizda bu turni rivojlantirish uchun kerakli infratuzilmani yaratish lozim. Joriy yilda "O'zstandart" agentligi tomonidan "Halol" standarti qabul qilindi va bu tadbirkorlarimiz tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati va xavfsizligini yuqori standart talablari asosida ta'minlanishiga zamin yaratadi. O'zbekiston korxonalarining "Halol" sertifikatini olishi, ushbu belgi ostida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga talabning oshishiga va undan qoniqish hissining paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Biroq bizda ba'zi bir kamchiliklar ham mavjud. Mamlakatimizga halol turizm yo'nalishida dam olishni maqsad qilgan turistning ilk tasavvuri aeroportlardan boshlanadi. Namoz vaqtida o'z farzini ado etmoqchi bo'lga musulmon uchun barcha aeroportlarda maxsus namozxonalar mavjud emas. Ayol va erkaklar uchun esa alohidalarini umuman topolmaymiz. Bunday xonalar faqatgina Surxondaryo xalqaro aeroportida mavjud. Demak, barcha viloyatlarda ushbu namozxonalar ni nafaqat aeroportlarda, balki mehmonxonalarda ham tashkil qilishimiz

lozim. Yurtimizda boy tarixga ega diniy qadamjolar, pir-u avliyolar mangu qo'nim topgan maskanlar va muqaddas ziyoratgohlar talaygina. Biroq turistlarning erkin ziyorat qilishlari uchun barcha zamonaviy sharoitlar mavjud emas. Ularning tahorat qilishi, namoz o'qishi uchun maxsus xonalar barpo qilinishi, gid-tarjimonsiz tashrif buyurgan ziyoratchilar uchun ushbu maskan haqida to'liq ma'lumot berilishini ta'minlovchi maxsus broshshuralar yoki audio-gidlar tashkil qilimiz ham kerak. Turistlarga bir necha soniya ichida yaqin hududda joylashgan mehmonxona, restoran va boshqa diqqatga sazovor maskanlar haqida bir nechta tilda ma'lumot beruvchi dasturlar yaratish lozim. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev farmonlari asosida Samarqand viloyatida joylashgan Imom al Buxoriy majmuasi butunlay yangi qiyofaga kirdi. Bu yerda zamon talabiga mos barcha xizmatlar yaratildi. Biroq, diyorimizda musulmonlar e'tirofida bo'lgan shaxslar judayam ko'p va ularning barchasida ham mavjud infrastruktura yaratilmagan. Madaniyat va turizm vazirligi qoshidagi "Turizm xizmatlarini sertifikatlash markazi" DUK tomonidan "World Halal Trust Group" va "Halol "MAIB" Xalqaro sertifikatlashtirish markazi" MChJ bilan Halol turizm sohasida yaqin hamkorlikni rivojlantirish maqsadida memorandum imzolandi. Memorandumda Halol turizm uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlash, davlatning iqtisodiy va madaniy rivojlanishida axloqiy meyorlar va qoidalarning ahamiyati va muhimligini e'tiborga olish nazarda tutilgan.

Memorandumga binoan tomonlar quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

Halol turizm, shu jumladan turizm xizmatlarini "Halol" sertifikatlash masalalari bo'yicha qo'shma tadqiqotlarni rivojlantirish va bunday tadqiqotlarni xalqaro, milliy, mintaqaviy darajalarda o'tkazish usullarini ishlab chiqishda ishtirop etish;

Kasbiy tayyorgarlik bo'yicha qo'shma dasturlarni tashkil etish;

OIC/SMIIC 9:2019 "Halol turizm xizmatlari. Umumiyl talablar" standarti talablariga muvofiqligiga mehmonxona xizmatlarini sertifikatlash.

Ma'lumot uchun, World Halal Trust Group Halol sertifikatlash xizmatlarini taqdim etishga va yangi bozorlarni ochishga yordam beradi. Bundan tashqari,

kompaniyalar o‘z mahsulotlarini boshqa mamlakatlarda va halol mahsulotlar talab qilinadigan bozorlarda sotishlari mumkin bo‘ladi².

“O‘zstandart” agentligining tashabbusi bilan yurtimizda “Halol” standarti qabul qilindi. Mamlakatimizda mazkur standartning qabul qilinishi asosida oziq-ovqat mahsulotlarining eksport hajmi ortishi barobarida, turizm salohiyatini ko‘tarishga xizmat qilmoqda. 8 may kuni “Ortadogu Grup” kompaniyasi tomonidan poytaxt Toshkentdagi “Radisson Blue Hotel Tashkent” mehmonxonasida tashkil etilgan “Halol turizm yo‘nalishida tajriba almashinuvi, hamkorlik va istiqbolli harakat mavzu”sida o‘tkazilgan anjumanda shu haqda so‘z bordi. Unda o‘zbekistonlik turizm agentlari va soha mutaxassislari, dinshunos va turkshunos olimlar, OAV xodimlari ishtirok etdi. O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish, ayniqsa, ziyorat turizmi salohiyatini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Turizm obyektlarining muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash, madaniy meros obyektlarini restavratsiya, konservatsiya qilish va obodonlashtirish hamda turizm infratuzilmasi va yondosh infratuzilmani qurish, rekonstruksiya qilish, kengaytirish va madaniy-ko‘ngilochar infratuzilmalarni rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab loyihalar ishlab chiqildi³.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qarori bilan 7 mamlakat fuqarolari uchun viza tizimining bekor qilinishi O‘zbekistonga bo‘lgan qiziqishni yanada oshirdi. O‘zbekiston rahbari o‘z chiqishlarida bir necha bor turizmni rivojlantirish borasida Turkiya amaliyotidan foydalanish haqida gapirgan edi. Turkiya Respublikasi Prezidenti Rajab Toyib Erdo‘g‘anning 2018 yil 29-30 aprel – 1 may kunlari O‘zbekistonga amalga oshirgan tashrifi davomida ham bu masalaga alohida to‘xtalindi. 2017 yilda “Halol turizm” bo‘yicha “Crescent Rating” tashkiloti tomonidan tuzilgan reytingda O‘zbekiston 28-pog‘onani egallagan. Birinchi o‘ntalikdan esa Malayziya, Indoneziya, Marokash va Turkiya mamlakatlari o‘rin olgan. Ham tarixiy, ham til va madaniyat jihatidan O‘zbekistonga eng yaqin mamlakat Turkiyadir. Shu bois yiliga minglab o‘zbekistonlik sayyohlar bu ko‘hna mamlakatga safar uyushtiradilar.

²O‘zstandart agentligi “O‘zbekiston halol turizm xizmatlari” memorandumi 18.07.2023

³Vazirlar mahkamasining 110-sod 10.03.2022 "Turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" qarori

Turkiyada turizm mintaqadagi boshqa davlatlarga qaraganda ancha rivojlangan, ayniqsa, “halol turizm”. 40 yildan buyon nafaqat Turkiya, balki dunyoning turli mamlakatlarida ko‘plab sohalarda yirik loyihalarni amalga oshirib kelayotgan “Ortadogu Grup” kompaniyasi “Halol turizm” standartlariga to‘la javob beradigan “Wome Deluxe” oilaviy mehmonxonasi va “Nisantasi” shifoxonasi xizmatlari bilan tilga tushgan. Xo‘sh, nega aynan “Wome Deluxe” mehmonxonasi? Antaliya shahrida joylashgan mehmonxona va shifoxonada yuqorida sanab o‘tilgan jihatlarga alohida e’tibor qaratiladi. Ushbu mehmonxona 2015 yilda bunyod etilgan bo‘lib, Turkiyada “halol turizm” standartlariga javob beruvchi birinchi mehmonxona sifatida e’tirof etilgan. Mehmonxona birligina 2017 yilning 365 kuni davomida tanaffussiz 255 ming kishiga xizmat ko‘rsatgan. Unda erkaklar va ayollar uchun alohida hovuzlar, oilaviy hordiq chiqarish ob’ektlari, bolalar uchun o‘yingohlar, mavjud va bu amaliyotni O‘zbekistonda qo‘llash mamlakat turizmi uchun katta foyda keltiradi. O‘zbekistonga bo‘layotgan qiziqish, sayyoohlар oqimining asosiy qismi muslimon mamlakatlaridanligini hisobga olsak, “halol turizm”ni rivojlantirish mamlakatning kelgusidagi turizm salohiyati uchun muhim ahamiyatga ega. Prezidentlar Rajab Toyib Erdo‘g‘an va Shavkat Mirziyoyev o‘rtasida kuni kecha o‘tkazilgan uchrashuvlar ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarda yangi sahifa ochdi. Qardoshlik aloqalarini yanada mustahkamladi. O‘zbekistonliklar Turkiya shaharlari Istanbul, Antaliya va Bodrumni qanchalik yaxshi ko‘rsalar, Turkiyada ham Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlaringizni sevuvchilar millionlab topiladi. Biz O‘zbekistonni otayurtimiz deb bilamiz va uning turizm sohasida ham rivojlanishiga o‘z hissamizni qo‘shish istagimiz bor. Shu bois O‘zbekistonga shunchaki yig‘ilish o‘tkazgani emas, balki o‘z amaliyotimizni tanishtirgani, tajriba almashgani keldik, – “Ortadogu Grup” kompaniyasi vakili Masud Menderes Karabog‘a. “Radisson Blue Hotel Tashkent” mehmonxonasida bo‘lib o‘tgan taqdimotda ham Turkiya, xususan, “halol turizm” yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan “Wome Deluxe” oilaviy mehmonxonasi va “Nisantasi” shifoxonasining faoliyati o‘rnak sifatida ko‘rsatilib, O‘zbekistonlik turoperatorlar va turizm sohasi mutxassislariga bu borada kerakli maslahatlar,

tavsiyalar berildi. Hamkorlik yuzasidan fikr almashildi. O‘zbekistonda ham ushbu yo‘nalishda faoliyat yuritadigan mehmonxonalarni ochish bo‘yicha ish olib borilayotgani aytildi. 2020-yil 18 avgust kuni AOKAda Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi vakillari ishtirokida matbuot anjumani bo‘lib o‘tdi. Unda halol turizm mavzusida ham so‘z bordi.«Mamlakatda mahalliy va xorijiy musulmon sayyoohlar talablariga javob beradigan dam olish maskanlarini ochish xalqaro tajribada bor. Masalan, Turkiya, Malayziya va Indoneziya mamlakatlarida bu tajriba keng qo‘llaniladi. Bunda nafaqat musulmonlar uchun, balki oilaviy dam oluvchilar, ayollar va erkaklarning alohida dam olishi uchun sharoitlar yaratiladi. Crescent Rating kompaniyasining Master Card bilan hamkorlikda tuzgan reytingida halol turizm uchun eng qulay musulmon mamlakatlari ro‘yxatida O‘zbekiston 28-o‘rinni egalladi, Ro‘yxatda Malayziya birinchi, BAA ikkinchi, Indoneziya uchinchi o‘rinni egallagan. Dunyoda ziyorat turizmining yillik hajmi 151 milliard dollarga teng. Dunyodagi mehmonxona biznesi peshqadamlaridan biri — Rezidor Hotel Group kompaniyasining ma’lumotlariga ko‘ra, yaqin 10 yil ichida Halol turizm hajmi yiliga 20 foizdan oshib boradi. Global to‘lov tizimining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri — Master Card kompaniyasining HalalTrip turistik portalini bilan hamkorlikda o‘tkazgan tadqiqotiga asosan, 2030-yilga borib, 15 yoshdan 29 yoshgacha bo‘lgan dunyo yoshlarining uchdan birini musulmonlar tashkil etadi. Bugungi kunda bu yoshdagilar yiliga 2—5 marta, o‘rtacha 4—6 kunlik sayohatga chiqmoqda. 2025-yilga kelib, yosh musulmonlar dunyo bo‘ylab sayohatlar uchun yiliga 100 milliard dollardan ko‘proq miqdorda pul sarflashi bashorat qilinmoqda. Bu sohada xalqaro turizmning ham o’mi kata. Xalqaro turizm xalqaro iqtisodiy faoliyatning asosiy turlaridan biri bo‘lib,

jahon xo‘jaligining tuzilishi va umumiyligi holatiga, shuningdek, dunyoning aksariyat mamlakatlari va alohida mintaqalari iqtisodiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan murakkab sohadir. Turizm faoliyati axborotga boy sohadir. Tanlangan mavzuning dolzarbliji zamonaviy sharoitda raqamlashtirish hamkorlikni rag‘batlantirish, turizm imkoniyatlarini kengaytirish, turistlarning turdosh soha xodimlari bilan o‘zaro munosabatlarini soddallashtirish, ekskursiyalarning yangi

formatlarini yaratish, brending imkoniyatlarini kengaytirish omiliga aylanib borayotgani bilan mustahkamlanadi. va shahar turizmi. Bugungi dunyo raqamli ma'lumotlarga katta ta'sir ko'rsatadi, foydalanuvchilar tomonidan qoldirilgan raqamli iz miqdori raqobatbardoshlikni oshirish uchun ko'plab tarmoqlarda keng qo'llaniladi⁴.

Halol turizm turida yangi yo'nalishlarni tashkil qilishda GIS texnologiyasi asosida “yo'l xarita”larini yaratish va unda halol belgisi ostida xizmat ko'rsatuvchilarning manzilini aks ettirish lozim. Malayziyada SalamWeb nomli yangi halol internet-brauzer yaratildi. Ushbu brauzer haqoratli, qimor o'yinlari taklif qilayotgan, alkogol mahsulotlari reklamasi bor saytlarni aniqlab, ular haqida foydalanuvchini ogohlantiradi. Musulmonlar uchun yangiliklarga obuna bo'lish, namoz vaqtি haqida ogohlantirish va “Qibla” tomonni aniqlash uchun kompos funksiyalari kiritilgan. Yurtimiz turizmida ham shunday o'ziga xos brauzerlar yaratilsa, musulmon turistlar uchun har tomonlama ijobiy natija berar edi. Ovqatlantirish korxonalarida halol belgili mahsulotlardan foydalanish bilan bir qatorda, maxsus onlayn ekranlar tashkil qilish va iste'mol qilinayotgan yeguliklar qayerdan va qanday holatda yetishtirilganli namoyish qilinsa, ham yegulikdan minnatdorchilik paydo bo'ladi va agro turizmga ham turtki beradi. Mehmonxonalarda Qur'oni karim kitobi bo'lishi, xonalarda qiblani ko'rsatuvchi belgilar qo'yilishi lozim. Halol turizmni rivojlantirishda davlatlar tajribasidan foydalanish va hamkorlikni yo'lga qo'yish turistlar oqimining ortishiga xizmat qiladi. Bunda Turkiya tajribasidan foydalanish muhim. Mehmonxonalarda erkak va ayollar uchun alohida hovuzlar, bolalar uchun o'yingohlar, oilaviy hordiq chiqarish obyektlarini tashkil qilishni qo'llash katta foyda keltiradi. Aytish kerakki O'zbekiston katta tarixiy-madaniy obidalarga ega va ular YUNESKOning madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Demak, turizmni milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biriga aylantsak bo'ladi. Aslida turizmning bu yo`nalishi paydo bo`lganiga hali ko'p vaqt bo`lgani yo`q. “Halol turizm atamasi” mintaqamizda yaqin-yaqindan ishlatila

⁴ “ Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlari marketingini o'rganish va takomillashtirish yo'llari” Dessertatsiya UDK: _338.487

boshlandi. Dunyoda islom diniga e`tiqod qiluvchi 1,6 milliard aholi istiqomat qiladi, shundan qariyb 150 millioni har yili sayohatga chiqadi. Shundan kelib chiqib, “Halol turizm” bugungi kun uchun juda kerak degan xulosaga kelishimiz mumkin. Xo`sh, “Halol turizm” o`zi nima? U oilaviy hordiq chiqarish, hamyonbop turar joylarda tunab, sifatli, ozoda ovqatlanish shoxobchalarida taomlanish hamda isrofgarchilikni xush ko`rmaydiganlar uchun yaratilgan xizmat turidir. 2017 yilda yilda “Halol turizm” bo`yicha «Grescent Rating» tashkiloti tomonidan tuzilgan reytingda O`zbekiston 28-o`rinni egallagan. Birinchi o`ntalikka esa Malayziya, Indoneziya, Marokash va Turkiya mamlakatlari o`rin olgan. Bular orasidan bizga til, din va madaniyat jihatdan yaqin bo`lgan, qardosh Turkiyaga o`zbekistonliklar ko`proq sayohatga borishadi. Turkiyada turizm ancha rivojlangan, ayniqsa “Halol turizm” Shunday ekan turizm sohasida ulardan ko`p narsalarni o`rganishimiz mumkin. O`zbekistonda halol turizmni rivojlantirish rejalashtirilmoqda. Buning uchun Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi Turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish markazi davlat unitar korxonasi, “World Halal Trust Group” kompaniyasi va MAIB Xalqaro Halol sertifikatlashtirish markazi o`rtasida halol turizm sohasida hamkorlikni rivojlantirish bo`yicha memorandum imzolandi. Bu haqda boshqarma matbuot xizmati xabar berdi. Hujjatda sohada ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlash va mamlakatimizda ushbu sayyoqlik yo`nalishini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish ko`zda tutilgan. Bundan tashqari, tomonlar qo`shma ishlanmalarda, shuningdek, halol turizm bilan bog`liq xalqaro, milliy, mintaqaviy darajadagi tadqiqotlarda ishtirok etishlari mumkin. Bugungi kunda turizm jahondagi eng yetakchi sohalardan biridir⁵.

XULOSA

Mahalliy jamoalarni halol ekologik turizmga jalb qilish orqali sanoat barqaror va mas'uliyatli turizm amaliyotini targ'ib qilishi, shu bilan birga mahalliy jamoalarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashi mumkin. Bu sayyoqlar va

⁵“Turizm asoslari” darslik I.S Tuxliyev B.SH Safarov T:53 O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta'lif vazirligi Toshkent: Fan va texnologiya 2014

mahalliy jamoalar o'rtasida ijobiy va o'zaro manfaatli munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi va turizm faoliyatining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi.

Umuman olganda, halol ekologik turizm xizmatlari barqarorlik, atrof-muhitni muhofaza qilish va madaniy qadrlashni rag'batlantirish, shu bilan birga tashrif buyuruvchilar uchun qulay va yoqimli sayohat tajribasini taqdim etish uchun ishlab chiqilishi kerak. Halol ekologik turizm O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishning innovatsion va istiqbolli strategiyasi bo'lishi mumkin. Ushbu yondashuv Islom qonunlari tamoyillariga rioya qiladigan, mas'uliyatli va axloqiy turizm amaliyotini targ'ib qiluvchi barqaror sayohat tajribalarini taqdim etishga qaratilgan.

O'zbekistondagi ekologik turizm korxonalari halol talablarini o'z faoliyatiga qo'shib, o'zlarining e'tiqodga asoslangan qadriyatlariga mos keladigan sayohat tajribalarini izlayotgan musulmon sayohatchilarning o'sib borayotgan bozoriga kirishlari mumkin. Bunga halol tomonidan tasdiqlangan oziq-ovqat, ibodat joylari va musulmon sayohatchilarning o'ziga xos ehtiyojlarini qondiradigan boshqa qulayliklar taklif qilinishi mumkin.

Bundan tashqari, halol ekologik turizm atrof-muhitga ham, mahalliy jamoalarga ham foya keltiradigan barqaror va ekologik toza amaliyotlarni targ'ib qilishi mumkin. Boshqaruv va tabiatni muhofaza qilishning Islomiy qadriyatlariga rioya qilgan holda, ushbu korxonalar O'zbekistonning tabiiy va madaniy boyliklarini saqlashga hissa qo'shishi, shu bilan birga ish joylarini yaratishi va mahalliy korxonalarni qo'llab-quvvatlashi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, halol ekologik turizm O'zbekistonda barqaror va mas'uliyatli turizmni rivojlantirishning innovatsion va istiqbolli strategiyasini ifodalaydi. Musulmon sayohatchilarning ehtiyojlarini qondirish va barqaror amaliyotni targ'ib qilish orqali O'zbekistondagi ekologik turizm bizneslari tashrif buyuruvchilarga ham, mahalliy hamjamiyatga ham foya keltiradigan yanada inklyuziv va xilma-xil turizm sanoatining o'sishiga hissa qo'shishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni-T.:1999-yil 20-avgust
2. "Turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori-T.: 26.04.2023
3. Adilova Z.D Sodiqov T "Xalqaro turizm biznesi" o'quv qo'llanma –T.: TDIU.2010
4. Turizm asoslari" darslik I.S Tuxliyev B.SH Safarov T:53 O'zbekiston Respublikasi Olyi va o'rta maxsus ta'lif vazirligi Toshkent: Fan va texnologiya 2014
5. Aliyeva M.T Norchayev A "Turizm menejmenti" o'quv qo'llanma-T.:TDIU.2011

Internet saytlari

1. www.gdnet.org
2. www.stat.uz
3. www.lex.uz
4. www.uzbektourism.uz
5. www.economics.uz